



## THE FIRST STEP IN CREATING A BASIS OF DESCRIPTIVE EXPRESSIONS IN THE UZBEK LANGUAGE BUILDING

Ziyodulloyev Shohruh Bahromjonzoda<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Termez State University

Master's Department Linguistics: 2nd year student of Uzbek language

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4936891>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> June 2021

Accepted: 05<sup>th</sup> June 2021

Online: 10<sup>th</sup> June 2021

### KEY WORDS

Corruption, principle,  
Uzbek national corps.

### ABSTRACT

*One of the most important issues facing our applied linguistics today is the creation of a national corpus of the Uzbek language. The word national in the corpus means not only the language, but also the structure and composition of the corpus. The National Corpus differs from other language corporations in that it includes a complex of educational corporations, author's corps, poetic texts, scientific and official texts, oral texts, literary texts and newspapers, and dialects. Therefore, the creation of a national corpus requires a large team.*

## O'ZBEK TILI KORPUSIDA TASVIRIY IFODALAR BAZASINI YARATISHDAGI DASTLABKI QADAM

Ziyodulloyev Shohruh Bahromjonzoda<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Termiz davlat universiteti

Magistratura bo'limi Lingvistik: O'zbek tili yo'nalishi 2-kurs talabasi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-iyun 2021

Ma'qullandi: 05-iyun 2021

Chop etildi: 10-iyun 2021

### KALIT SO'ZLAR

Korrupsiya, tamoyil, O'zbek milliy korpusi.

### ANNOTATSIYA

*Bugungi kunda amaliy tilshunosligimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biri – o'zbek tilining milliy korpusini yaratishdir. Korpusdagi milliy so'zi nafaqat tilning, balki korpus tuzilishi va tarkibining ham o'ziga xosligini anglatadi. Milliy korpus boshqa turli til korpuslaridan farqi majmuaviylik tabiati – unda ta'limiy korpus, mualliflik korpusi, poetik matnlar korpusi, ilmiy va rasmiy matnlar korpusi, og'zaki matnlar, badiiy matnlar va gazetalar hamda dialektlar korpusi kabi ichki korpuslarni o'z tarkibiga qamrab olganligi bilan belgilanadi. Shu bois milliy korpusni yaratishda katta jamoa faoliyati zarur.*

O'zbek milliy korpusini yaratish maqsadida shu kunga qadar 10 ga yaqin ilmiy ish himoyasi amalga oshirildi. Bugungi kunda bu borada kompyuter va korpus tilshunosligi va amaliy tilshunosligi sohalarini rivojlantirish, Milliy korpus va

boshqa tur til korpuslarini yaratish maqsadida magistrlik dissertatsiyalari, falsafa doktori (PhD) va fan doktori (Dsc)



bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmogda<sup>1</sup>.

Ushbu maqolamiz ham milliy korpus qamrovida bo'lib, korpus uchun tasviriy ifodalar bazasini yaratish tamoyillari haqidadir. Hozirgi kunga qadar o'zbek milliy korpusida bu mavzuda birorta ish ko'zga tashlanmay, ilmiy yangiligi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu sohada turli mavzular bo'yicha qilingan ishlar juda muhim sanalib, milliy korpusni boyitadi va o'z navbatida qidiruv tizimidagi imkoniyatlarini kengaytirib boraveradi. O'zbek tili leksik jihatdan nihoyatda boy, go'zal va rang-barang til, ya'ni bir so'z bilan aytganda nutq uchun keng imkoniyatlar "Makoni" hisoblanadi. O'zbek adiblarining ijodini kuzatar ekanmiz yuqoridagi fikrlarning isbotini ko'rishimiz mumkin. Ular o'z asarlarida badiiylik talablaridan kelib chiqqan holda sinonimlar, antonimlar, iboralalar, badiiy ko'chimlarni qo'llash orqali tasviriy ifodalarning xilma-xil ko'rinishlarini aks ettirganlar. O'zbek tilshunos olimlari tomonidan, xususan, R. Qo'ng'urovning "O'zbek tilida tasviriy so'zlar", S. Karimovning "O'zbek tilining badiiy uslubi", "Badiiy uslub va tilning ifoda – tasvir vositalari, M. Yo'ldoshev, Z. Isaqov va Sh. Haydarovlarning "Badiiy matnning lisoniy tahlili", M. Qurbonova va M. Yo'ldoshevlarning "Matn tilshunosligi" kabi bir qator olimlar o'z ishlarida nutq jozibadorligini ta'minlaydigan va badiiy asar qiymati uchun o'ta muhim sanalgan tasviriy ifoda vositalari haqida o'z qarashlarini bayon etganlar. Garchi bu mavzuda tilshunos olimlar tomonidan turli xil fikrlar va uning mohiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy ishlar, asarlar

yaratilgan bo'lsa-da, lekin ayni bir ijodkorning asrlarida qo'llangan tasviriy ifodalar to'laligicha jamlanib, tahlil qilinmagan. Ularni yig'ish, tahlil qilish va korpus tamoyillari asosida tuzib elektron holatga keltirish endilikdagi dolzarb masalalardan biridir.

Quyida yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlarida tasviriy ifodalarning qo'llanishiga e'tibor qaratamiz:

***Quyosh ufqqa lab bosdi. Kichkina shalaq arava tuproq yo'ldan imillab borar edi. Qora eshak chillakday ingichka oyoqlari bilan tuproq changitib, aravani sudrab borar, g'ildiraklar nola chekkan kabi hazin g'iyqillardir... Quyosh yer ortiga yumalab ketdi. Oqshom shamoli ufqda yonib turgan shafaq alangasini puflab o'chirdi. Hamon g'ildiraklar nola chekar, shalaq arava tepalikka chiqib borardi*** ("Muhabbat"). Bu yerda yozuvchi oddiy "quyosh botdi" jumlasining o'rniga bu holatni "***Quyosh yer ostiga yumalab ketdi, Quyosh ufqqa lab bosdi***" kabi tasviriy ifoda usuli bilan tasvirilaydi. Bu ikki gap kontekstda o'zaro sinonimlik qatorini hosil qilgan. Quyida yana bir holatga diqqat qaratamiz:

*...Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup o'rik bor. Dovuchcha tukkanidan boshlab turshak bo'lguncha mahallaning qora-qura bolalari shoxdانشoxga tarmashadi. Otinoyi o'rikni qizg'anganidan emas, bolalarga achinganidan chirqillaydi: "Hoy, uyingga bug'doy to'lgur takalar, tush, yiqilib ketasan!" "Takalar" parvo qilmaydi. Biladiki, Otinoyining tuti ham, o'rigi ham ularniki! Umuman, bu hovli hammaniki.*

<sup>1</sup> B. Mengliyev. Til korpusi – ta'lim samaradorligi va milliy ma'naviyatimiz ravnaqi garovi.

<http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/news/238>.



Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud boʻlgan tayyor maʼnodosh soʻzlardagina foydalanib kelmasdan badiiy tasvir ehtiyojiga koʻra maʼnodosh boʻlgan soʻzlarni ham shunday qoʻllaydilarki, bu soʻzlar ham matnda xuddi maʼnodosh soʻzlar kabi idrok etiladi. Yuqoridagi **“takalar”** soʻziga eʼtibor qaratamiz. Bunda yozuvchi Otinoyining tilidan bolalarni takalar deb tasvirlashiga sabab, aynan qishloq hayotini, qishloqdagi bolalarning pishiqchilik davrlarida shoxdan-shoxga yopishib meva terishlarini maynan koʻrsatish, oʻquvchiga yanada aiqroq tasavvur uygʻotish maqsadida hamda mazmun boʻyoqligini oshirish maqsadida shu soʻzdan foydalangan. Bu soʻz esa “bolalar” soʻzi bilan kontekstual sinonimlikni hosil qilgan. Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida oʻzaro sinonim boʻlmagan leksemalarning maʼlum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi<sup>2</sup>

Biz yuqorida adibning sinonimlarni mahorat bilan qoʻllash orqali ifodalangan tasviriy ifoda namuanlarini koʻrdik. Bu borada yozuvchining ijodida trop (koʻchim)lar ham asosiy oʻrinni egallaydi.

*Qabriston jimjit. Faqat yoʻlakning ikki chetida saf tortgan mirzateraklar qabr ustiga bosh eggan farzandlardek onaga orom tilab alla aytadi. Ularning mungli shivirlashi tilovat sadolariga qoʻshilib, yurakni ezuvchi ohangga aylanadi... Oq surp yaktak kiygan, mosh-guruch soqolli*

*oʻziga yarashgan goʻrkov yuziga fotiha tortib oʻrnidan turadi: Boldi endi, bolam! Bunaqada oʻzingizni oldirib qoʻyasiz. Dunyoning ishlari shu ekan, iloj qancha? – U bir zum indamay qoʻydi-da, qoʻshib qoʻydi: - Volidayi mehriboningiz xoʻp yarlaqagan odam ekanlar. Toʻshakda yotmabdilar, birovgva zoriqmabdilar... Bunaqa beozor oʻlim har kimga ham nasib etavermaydi.*

*Nami qurib ulgurmagan tuproq uyumiga tikilgancha oʻylayman.*

*Ehtimol shundaydir. Onam bu dunyoda kamsuqumgina yashardi. Hech kimga ozor bermasdi. Hech kim bilan hech nimani talashmasdi. Ehtimol, tabiatning shafqatsiz elchisi bilan hamolishib oʻtirishni xohlamagandir. Ehtimol... Bu yerda biz tasviriy ifodaning yuksak namunasini koʻrishimiz mumkin: **“tabiatning shafqatsiz elchisi”** (“Dunyoning ishlari” qissasi).*

Biz yuqorida tasviriy ifodalarning asardagi qoʻllanishiga doir baʼzi namunalarni keltirdik. Yuqoridagi maʼlumotlar omboridan foydalangan holda tasviriy ifodalarning milliy korpusda keltirilish holati, yaʼni ularni tuzish tamoyillariga toʻxtalib oʻtmoqchimiz.

Tasviriy ifodalarni qaysi tamoyillar asosida shakllantirishga koʻra dastlab quyidagi mezon asosida yaratishga harakat qildik:

1. Tasviriy ifodaning berilishi;
2. Morfologik shakli(tuzilishi);
3. Nimani atab kelishiga koʻra (voqea-hodisa, narsa-predmet, insonga xos holatlar);

<sup>2</sup> Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.168-b.



4. Ma'nodoshlari, ularning uslubiy qo'llanilishi (mavjud bo'lsa)
5. Keltirilgan tasviriy ifodaning yozuvchi ijodida boshqa o'rinda qo'llagan varianti (mavjud bo'lsa);
6. Asardagi aynan qo'llanilish holati;
7. Mustaqil qo'llana olish yoki olmasligiga ko'ra

### Quyosh ufqqa lab bosdi

Tamoyil sharti		Tavsifi
Tuzilishi (so'z, so'z birikmasi, gap)		Gap shaklida
Nimani atab kelishiga ko'ra: Voqea-hodisa; Narsa-predmet; Insonga xos holat.		Voqea-hodisa
Ma'nodoshlari	Kun botdi, quyosh botdi, qosh qoraydi, kech kirdi	Bulardan qo'llanilish uslubiga ko'ra: qosh qoraydi - badiiy uslubda quyosh botdi, kech kirdi - so'zlashuv uslubiga xos
Zid ma'no (aks holati)	Tong otdi, kun chiqdi	
Mustaqil qo'llana olishi	Mustaqil qo'llana olish imkoniyatiga ega	
Asarda aynan qo'llanilgan holati	<b><i>Quyosh ufqqa lab bosdi. Kichkina shalaq arava tuproq yo'ldan imillab borar edi. Qora eshak chillakday ingichka oyoqlari bilan tuproq changitib, aravani sudrab borar, g'ildiraklar nola chekkan kabi hazin g'iyqillardir...</i></b>	
Keltirilgan tasviriy ifodaning yozuvchi ijodida boshqa o'rinda qo'llagan varianti	<b><i>Quyosh yer ortiga yumalab ketdi. Oqshom shamoli ufqda yonib turgan shafaq alangasini puflab o'chirdi. Hamon g'ildiraklar nola chekar, shalaq aravatepalikka chiqib borardi.</i></b>	



Tamoyil sharti	Tavsifi		
Tuzilishi	So`z +	So`z birikmasi	Gap
Turkumi	Ot		
Nimani atab kelishiga ko`ra	Voqea-hodisa	narsa-predmet	insonga xos
			+

Ma`nodoshi(asardagi)	bolalar
Matndan tashqaridagi atash ma`nosi	Echkining erkagi
Mustaqil qo`llana olishi	Yo`q. kontekstual vaziyat bilan bog`liq
Tasviriy ifoda sifatida izohlanishi	Bunda yozuvchi Otinoyining tilidan bolalarni takalar deb tasvirlashiga sabab, aynan qishloq hayotini, qishloqdagi bolalarning pishiqchilik davrlarida shoxdan-shoxga yopishib meva terishlarini maynan ko`rsatish, o`quvchiga yanada aiqroq tasavvur uyg`otish maqsadida hamda mazmun bo`yoqligini oshirish maqsadida shu so`zdan foydalangan. Bu so`z esa "bolalar" so`zi bilan kontekstual sinonimlikni hosil qilgan.
Mustaqil qo`llana olishi	Yo`q. kontekstual vaziyat bilan bog`liq
Asarda aynan qo`llanilish holati	<i>...Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup o`rik bor. Dovuchcha tukkanidan boshlab turshak bo`lguncha mahallaning qora-qura bolalari shoxdanshoxga tarmashadi. Otinoyi o`rikni qizg`anganidan emas, bolalarga achinganidanchirqillaydi: "Hoy, uyingga bug`doy to`lgur takalar, tush, yiqilib ketasan!" "Takalar" parvo qilmaydi. Biladiki, Otinoyining tuti ham, o`rigi ham ularniki!</i>

### Tabiatning shafqatsiz elchisi

Tamoyil sharti	Tavsifi		



Tuzilishi shakli	Soʻz. qoʻshma	Soʻz birikmasi	gap
	soʻz		
	+		
Turkumi	ot		
Tasviriy ifoda sifatida mustaqil qoʻllanila oladi	Ha. Mustaqil qoʻllanish imkoniyatiga ega		
Nimani atab kelishiga koʻra	Voqea-hodisa	narsa-predmet	insonga xos
		+	
Manodoshi Nimaning oʻrnida qoʻllangan	Oʻlim, ajal	Bulardan oʻlim soʻzlashuv uslubida keng qoʻllaniladi. Ajal badiiy uslubga xos	
Asarda aynan qoʻllanilishi	Ehtimol shundaydir. Onam bu dunyoda kamsuqumgina yashardi. Hech kimga ozor bermasdi. Hech kim bilan hech nimani talashmasdi. Ehtimol, <b>tabiatning shafqatsiz elchisi</b> bilan hamolishib oʻtirishni xohlamagandir (“Dunyoning ishlari”)		
Keltirilgan tasviriy ifodaning yozuvchi ijodida boshqa oʻrinda qoʻllagan varianti	Nazira hayotida hech kim bilan olishishni istamagani kabi oʻlimda ham <b>ajal</b> bilan tortishib oʻtirgisi kelmagandek osoyishta yotar, lablarida alamli tabassum qotib qolgan, goʻyo oxir-oqibat, bu ozoblardan qutilganiga shukr qilgandek (“Tushda kechgan umrlar”).		

Tasviriy ifodalar bazasini shakllantirish yuqoridagi kabi tamoyillarga asoslanib, biz ushbu maqolada dissertatsiya ishimizdan namuna keltirdik. Bu, oʻz navbatida, yuqorida aytib oʻtganimizdek mualliflik korpusi asosida ayni bir ijodkorning

asarlarida qoʻllangan tasviriy ifodalarni yigʻish, tahlil qilish va uni korpusda baza sifatida shakllantirishga qoʻyilgan dastlabki qadam boʻlib, keying ishlarimizda kengroq yoritishga harakat qilamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Mengliyev. Til korpusi – taʼlim samaradorligi va milliy maʼnaviyatimiz ravnaqi garovi. <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/news/238>.
2. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.168-b.